

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA RAQAMLI VIZUAL MATNLAR

Muhammadxon Hakimov

Filologiya fanlari doktori, professor.

Nargizaxon Xudoyberdiyeva

Farg'ona davlat universiteti

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'arb adabiyotida uchraydigan raqamli vizual poetik matnlarning o'zbek va turk tillaridagi izohlari va raqamlarning shakl hosil qilishdagi ahamiyati haqidagi qarashlar yoritilgan va misollar bilan mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: raqamli she'r, numaralar, yo'qlik, raqam ramzi, majoz.

Vizual poetik matnlar bir-biridan shakl va ma'no munosabati bilan ajralib turadi. "Vizual poetika turli tadqiqotchilar tarafidan bir necha turlarga ajratilgan. Mayk Uiver uch turga vizual, tovushli, kinetik; Tomas Kopferman besh turni semantik, noseantik, vizual, akustik, konkret va montaj; Ketlin Makkalo esa sakkiz turni bosma, tovushli, uch o'lchovli, kinetik, kompyuterda yaratilgan, semoitik, o'ynoqi-ironik, so'zlarni rasmlar va fotosuratlar yordamida ifodalaydigan aniq she'riyat kabi turlarga ajraladi."¹ Bundan tashqari XX asrda ushbu turning yana bir ko'rinishi sifatida raqamli vizual poetik matnlar ham paydo bo'ldi. Matnning ushbu turi turk adabiyotiga XX asr o'rtalarida Tarik Gunerselning ijodi orqali kirib kelgan bo'lsa, o'zbek adabiyotiga XXI asr boshlarida Abdurahmon Akbar she'riyati vositasida paydo bo'la boshladi. Badiiy adabiyotda raqamlar ma'lum bir yashirin ma'noni ifodalab keladi. Gunersel ijodiga oid raqamli she'rlarda sonlar ramziy ma'nolarni ifodalab, o'quvchini mulohaza qilishga chorlaydi.



"3333" nomli ushbu vizual matn aynan Tarik Gunersel ijodiga mansub bo'lib, u sarlavha va epigrafdan tashqari 3333ta noldan iborat. Epigrafdan G'arbiy Afrikadagi bir qabila qirolining 3333 ta rafiqasi bo'lganligi, lekin qirol ko'nglining boshqa ayoldaligi, 3333ta ayoldan pinhona ravishda sevgilisi bilan uchrashishning qiyinligi yozilgan.

Epigrafdan so'ng 3333ta noldan iborat bo'lgan vizual poetika yaratiladi. Yashirin ma'noga ega bo'lgan she'rda shu qadar ko'p ayolning bir qirolga qallig' bo'lishi hech qanday miqdor bildirmaydigan, yo'qlikni ifodalaydigan nol soni bilan belgilangan. Ya'ni qirol nuqtayi nazaridan qaraganda 3333ta yor miqdor sifatida ma'lum bir ko'plikni ifodalashi mumkin, lekin bu ayollarning noldan farqi yo'qligi, biror-bir qadrlining va ahamiyatining bo'lmaganligini ifodalaydi. Shu qadar ko'p yorning o'rtasida esa ishqning bo'lishi dargumondir. Turk manbalarida aytilishicha "nolning keragidan ortiq qo'llanilishi inson o'zligini yo'qotishning va kibrga yo'l qo'yishning bir belgisi"² sifatida belgilanadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Nima uchun muallif qirol joriyalarini boshqa ko'plikdagi sonlar bilan emas aynan 3333 soni orqali ifodalab bergan? Biz bu savolga turk tili grammatikasidagi ayrim yondashuvlarga ko'ra javob bermoqchimiz. Turk tili tilshunosligida asosiy ko'plik ma'nosi miqdor bildiruvchi uch sonidan boshlanadi. Ikki soni esa ikkita yakka narsani qiyoslash uchun qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bizningcha, adresant adresatga 3333 soni orqali keragidan ortiq bo'lgan ayollarni 3 sonini davom ettirgan holda ifodalab bergan. So'zimizning isboti sifatida quyida yana bir raqamli vizual poetik matn bilan tanishim chiqsak:

Muallifning "Bir sevgi tarixi" nomli she'rda ham ayol va erkak o'rtasidagi munosabatni raqamlar vositasida ifodalaydi. 13 raqami bilan boshlangan ushbu poetik matnda turmush qurgan ikki yoshning (ya'ni ikkita 1ning)birdan uchga aylanish istagi, ya'ni farazandli bo'lish orzusi 13 raqami bilan beriladi. Bu o'rindagi raqamlarni 13 emas 1 va 3 deb olsak tog'riroq bo'ladi. Matnda "2 bo'lish boshlanishida ularga hech qanday tashvish tug'dirmaydi"³ deyiladi. Ikki raqami orqali ayol va erkak tushuniladi. Bu jumlaning ma'nosi esa turmush qurgan yoshlarni ilk yillarida farzandsizlik uncha xavotirga solmadi. Keyingi jumlalarda esa "bu 2'lik ayrilib 1 ga qaytsa ham, ba'zan 3 bolish orzusi bilan yana birlashadilar"⁴ kabi o'rinlar mavjud. Ya'ni yoshlar ajralishib ketsa ham farzand umidida yana birga bo'lishadi degan ma'noni ifodalaydi. Eng oxirgi jumlalarda esa "lekin ayriliq bu 3ni bo'lib tashlab, qaytadan 1, 1, 1 ga aylantiradi. Ikki kishi bilan boshlangan ishq dastlab 1 ga qaytadi. 1 dan esa 0 ga. Katta orzular bilan boshlangan sevgining tugash nuqtasi oddiy 0. Bu 0 esa hech narsadir"⁵ kabi o'rinlarni uchratish mumkin.

² Emel A. Fazil Hüsnu Dağlarca'nın şiirinde sayıların dili. Türk dili, s.436-437.

bir an çoksun
 toksun
 çocuksun
 bir an yoksun
 um
 kum
 ç o l
 son desüz
 öz süzüz
 son soñklar yansıyor
 artık olmayın suda
 ç / o l
 sayıklama bu da
 k u m
 y o k u m¹¹

Tarik Gunersalning ushbu poetik matnida ham sahroda suvsiz qolgan insonning halok bo'layotgani tasvirlanib, oxirgi misra "Yo'qman"(Yokum) so'z bilan tugaydi. Bu o'rinda Yokum so'zini hosul qilish uchun o harfi o'rnida 0 raqamidan foydalaniladi. Bu esa ham so'z butunligini, hamda 0 raqami orqali mavjud emaslikni ifodalab kelmoqda.

Ko'rib turganimizdek yuqoridagi vizual matnlarda 3 va 0 soni qo'llanilgan va ularning ikkida nolning leksik ma'nosi "yo'qlik", "mavjud emaslik"ni ifodalab kelmoqda. Bu nuqtayi nazardan o'zbek va turk tillari lingvokulturologiyasida nol semasi adresatga aynan bir xil axborotni yetkazishi bilan birlashtiruvchi o'ringa ega desak yanglishmagan bo'lamiz. Shu bilan birgalikda uch soni yuqorida aytib o'tganimizdek "ko'payishning dastlabki bosqichi" sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbek tili grammatikasida esa ko'plik ma'nosi ikki sonidan boshlanadi. Shu jihatdan matnlarda sof ko'plik munosabati ikki tilda birlashtiruvchi xususiyatga ega emas.

1 yil o'ldi bile - nice yıllara
 92 binisi - bu ne zehir
 scabik 12 derece - muslak sifre çak yakut²⁰

Bu matnda esa 1 va 92 sonlari vizual tarzda berilib, 1 va 92 o'rtasidagi katta farqlilik matn semaviy strukturasi hosil qilishda, shuningdek, ma'no qarama-qarshiligi keltirib chiqarib, tasirchanlikni oshirgan. Ya'ni bir yil va to'qson ikki ming yil o'rtasidagi tafovutni his qilish uchun adresant adresatga raqamlarni vizual tarzda berishni maqul ko'radi.

Türler ükendi dediler
 7 yiğit kalmış meğer -üçü kadın
 İleriş i baş seçmişler
 700 olmuşlar umutla
 Bedenimde can görmüş İleriş Kağan
 Katil dedi can buldum katıldım⁵⁰

Muallif ijodiga oid ushbu tarixiy mavzuda yozilgan vizual matnda ham 7 va 700 raqamlari vizuallashtirilgan bo'lib, uning semasi ayni bir narsaning ortishi timsolida ifodalangan. Adresant 7 va 700 raqamlarini harglar yordamida yozsa ham bo'lar edi. Lekin adrestning yanada faol tarzda tushunishi uchun yana bir bora shu usulni tanlagan.

O'zbek adabiyotida raqamli vizual matnlarning ilk namunasi Cho'lpon ijodida oid bo'lib, u ham bevosita ramziylikka asoslanadi. 1926-yili nashr etilgan "Tong sirlari" nomli to'plamidan o'rin olgan "2 bosh 1 tana" nomli vizual poetik matnda fashizm zulmi va insonlardagi qabih holatlar 2 va 1 soni orqali ifodalangan.

2 БОШ, 1 ТАНА

"Фашизм"

"Патсифизм":

2 бoш,

1 тана.

Шаръли ўртоқ!

"Пансионби"

"Муссолини:"

Ака-ука;

Эмокчилар сени...

Қалбларида – шайтонлар кини...

Кўрдилар ким уйғoқ,

Қўлларида "нажот" ёзилган байроқ,

Арабистонни, Ҳиндни;

Юраклари тақа-пуқа.

-Ҳей шаръли ёш!

"Мандат"

"Протекторат"

2 бoш,

1 тана!

Кучсини эшига баҳона

Оврупо – мамадана,

"Хуқуқ! Хуқуқ!"

Дейди.

Муштан бошқа нарса йўқ!

П..... ейди*.

"Миллатлар Интифоқи"

Алдаш гузоғи!

"Халислар сўроғи"

Азронл ўроғи!

2 бoш,

1 тана!

6

Ko'rib turganingizdek ushbu matnda 2 va 1 sonlari grafik tarzda ifodalanmagan. Adresant "ma'no jihatdan bir-biriga zid tushunchalarning, aslida, bir butun (bir tana) hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Matnda raqamlarning qo'llanilishi esa shu ta'kid ifodasini kuchaytiradi. Ya'ni 2 va 1 raqamlar ko'rinishi jihatidan jiddiy farqlanadi. Ayni damda, bir raqami o'z ko'rinishi bilan bir butunlikni (bir tanni) yaxshiroq ifodalaydi."⁷ Matnda 2 raqami "Fashizm" va "Patsifizm"; "Mandat" va "Protektorat";

⁷ Қуронов С. Эгиз санъатлар – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 120 б.


“Xolislar so’rog’i” va “Azroil o’rog’i” kabi tushunchalarga ishora qilsa, 1 raqami ularning birligini ifodalaydi. Ya’ni sodda qilib aytadigan bo’lsak, “ikkisi ham bir go’r” iborasiga to’g’ri keladi.

Shu bilan birgalikda o’zbek tilidagi raqamli vizual matnlarni Abdurahmon Akbar ijodida ham uchratishimiz mumkindir. Shoir bu borada o’zining “G’aroyib avtobus” nomli she’riy to’plamida quyidagi fikrlarni keltirib o’tadi:

“Bir kuni hayolinga bolalikda o’ynagan o’yinlarimizdan biri lop etib kelib qoldi: bir sinfdoshim partamga uchta katakcha chizilgan varaqni qo’yib, katakchalar ichiga “Sobir” deb yozib berishimni so’ragandi. “Sobir” so’zi beshta harfdan iborat, katakchalar uchta bo’lsa... Buning esi joyidami, dedim ichimda. Epini qila olmagandim, o’zi katakchalarni ko’rinishida to’ldirdi. Qoyil deb yubordim buni ko’rib... Keyinchalik, 1972-yili

s	o	l
---	---	---

 polyak shoirlarining rus tilida nashr etilgan she’rlarini o’qib, shu ko’rinishdagi bir-ikkita satrni uchratdim va raqamli she’rlar yozishga kirishdim.⁸



Abdurahmon Akbarning “Raqamli she’rlar” turkumidan olingan ushbu vizual matnda “Uchayapti”(3ayapti), “Qo’ng’ir” (q10ng’ir), “Ruchka” (r3ka), “Sho’ng’imoq”Sh10g’ir), “Birpas” (1pas), “Ko’nikib” (K10ikib), “Qo’ni-qo’shni” (q10i-qo’shni) kabi so’zlar negizidagi ayrim harflar raqamli shaklga o’zgargan.

Bolalar ijodkori sanalgan Abdurahmon Akbar aynan so’zlar semasiga ta’sir o’tkazmagan holda matnga raqamli vizuallilikni olib kirdi. Bu turdan ko’zlangan maqsad esa faqatgina adresatni topqirlikka, zukkolikka chorlashdir. Muallif aynan bolalar ijodiga murojaat qilganligi uchun ham ularni qiziqtirish, e’tiborlarini jalb qilish maqsadida shu shaklni olib kirdi. Bu o’rinda raqamlar zamirida hech qanday propozitsiya, tagma’no yoki pressupozitsiyani izlash noo’rin hisoblanadi.

⁸ Abdurahmon A.G’aroyib avtobus-Toshkent, O’qituvchi. 2012, 84-b

BOZORDA
 Sot, sot, Osmatoy,
 Man, Saiton hamda To'xta,
 Ilduz shifof do'konga
 Karib chiqqila ima i.
 Sot to'pponcha otli
 Bona ochi o'zga Saiton,
 Katabga el karib-yu
 Puli qaltnadi to'xtan.
 Osmat, To'xta -- Jozak
 Axtidan yuzur Iga
 Bag'ri ham «Bir haqiqat...» deb,
 Karib ketadil to'xta.
 Qabala kiyatman deya
 Sot otli jon atayot;
 To'xta ochim qaltn deb
 Karib qilib ko'k tarayot.
 Navbahonga, hayratga
 Bu'na ham hali archa,
 Man aytinga so'xtatman
 Shrang ar'mecha.

Ko'rib turganimizdek "Bozorda" nomli ushbu raqamli vizual poetik matnda ham 1, 2,10, 3,9 sonlari vizuallilikni ta'minlaydigan asosiy unsurlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Muallif ijodida aynan 1, 2, 3, 9, 10 sonlarining vizuallilik funksiyasida namoyon bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aykut H., Sibel T. Kulturdilbilim Baglamında Almanca Deyimlerin Çevirisine Bir Bakış. Mehmet Akif Ersoy Üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü dergisi. ISSN 1309-1387. 2019. S.455
2. Akay S. (2020). Görsel şiir ve Siirtli iki şairin müşeccer şiirleri. *Siirt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 8 (16), s. 289-303
3. Balcı, Umut ve Darancık, Yasemin: Almanca Yazın Terimleri Sözlüklerinde Somut Şiirin Tanımı. Çukurova Üniversitesi, Eğitim Fakültesi Dergisi, 34, 2007, s. 101-116.
4. Dexkanova L. Arab yozuvidagi harflarning she'riyatdagi jilosi. Central Asian journal of multidisciplinary research and management studies. Volume 1, issue 3, March 2024. 8-9- betlar. www.in-academy.uz (murojaat sanasi: 05.11.2024)
5. Esra Elmacıoğlu. Dile ait öğelerin kültürdilbilimsel açıdan incelenmesi. Uluslararası dil, edebiyat ve kültür araştırmaları dergisi. Cilt:5, sayı 1, 2022. S 41.